



JURNALISTIKANING BUGUNGI ZAMONDAGI O'RNI

Anvarov Azzamjon

Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda jurnalistika jamiyat hayotida muhim o'rin egallamoqda. Ommaviy axborot vositalari aholiga tezkor, ishonchli va xolis axborot yetkazish orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Zamonaviy jurnalistikaning asosiy vazifalaridan biri — jamiyatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni haqqoniy va aniqlik bilan yoritishdan iborat. Axborot oqimining keskin ortib borishi jurnalistdan yuqori kasbiy mahorat, mas'uliyat va axloqiy mezonlarga qat'iy amal qilishni talab etadi. Har bir e'lon qilinayotgan material faktlarga asoslangan, tekshirilgan va ishonchli bo'lishi zarur.

Bugungi kunda jurnalistika davlat va jamiyat o'rtasida muhim muloqot vositasi sifatida faoliyat yuritmoqda. Fuqarolarning murojaatlari, dolzarb muammolari va takliflarini keng jamoatchilikka yetkazish orqali ularning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, jurnalistika ochiqlik, oshkoralik va so'z erkinligi tamoyillarining amalda ta'minlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar axborot tarqatish imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa-da, noto'g'ri va asossiz ma'lumotlarning tarqalish xavfini ham yuzaga chiqarmoqda. Bunday sharoitda professional jurnalistikaning roli yanada ortib, ishonchli axborot manbai sifatidagi mas'uliyati kuchaymoqda.

Xulosa o'rnida aytganda, jurnalistika bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, fuqarolik ongini shakllantirish va ijtimoiy adolatni qaror toptirish yo'lida muhim institut hisoblanadi. Uning jamiyat hayotidagi o'rni doimiy ravishda ortib borishi tabiiy jarayondir.